

SUDDA HIMOYALANISH VA MALAKALI YURIDIK YORDAM OLISH

Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi
Qobilov Sunnatilla Shuxratovich

Annotatsiya: maqolada sud jarayonlarida himoyalaniş va yuridik yordam olish asoslari va turli munosabatlarda fuqarolarga ko'rsatiladigan yuridik yordamlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: sudda himoyalaniş, yuridik yordam, himoyalaniş huquqi.

Sud orqali himoyalaniş huquqi — fuqarolarning konstitutsiyaviy xuquqi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini Sud orqali himoyalaniş huquqi va davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 28-moddasida shunday norma mavjud: "Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi".

Ma'lumki, fuqarolar huquqiy munosabatlarga kirishishda turli huquqiy maqomda ishtirok etadilar. Masalan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda shartnoma tarafi sifatida (sotuvchi, xaridor, ijaraga beruvchi va hokazo), soliq munosabatlarida soliq to'lovchi sifatida, tadbirkorlik bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda tadbirkor sifatida va hokazo.

Mazkur munosabatlarda fuqarolar bevosita o'zlari ishtirok etadilar hamda o'z xatti-harakatlari orqali o'zlari uchun huquq va majburiyat yaratadilar, ushbu huquqlarni bevosita o'zlari himoya qila oladilar. Lekin, agar biror fuqaro jinoiy huquqbuzarlik sodir etsa, u beixtiyor ikkita huquqiy-munosabatning subyekti bo'ladi. Ulardan biri – jinoiy huquqiy munosabat. Ikkinchisi – jinoyat-protsessual huquqiy munosabat. Birinchi huquqiy munosabat shaxs jinoyat sodir etganda o'z-o'zidan amalga oshgan bo'ladi, ya'ni shaxs jinoyat sodir etish orqali jinoiy-huquqiy munosabat subyektiga aylanib bo'ladi. Ikkinchi huquqiy munosabat ya'ni, jinoyat-protsessual huquqiy munosabat esa, shaxs jinoyat sodir etganligi uchun qo'lga olingan paytdan boshlab vujudga keladi. Mazkur munosabatda shaxs yuqorida keltirilgan huquqiy munosabatlardagi kabi bitta huquqiy maqomda emas, balki to'rtta huquqiy maqomda qatnashadi. Ular – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkum. Ikkinchidan, ushbu huquqiy munosabatning yuqorida keltirilgan huquqiy munosabatlardan farqi shundaki, shaxs ushbu holatda o'z huquqini bevosita o'zi himoya qila olmaydi. Bu holatda shaxsning haqiqatda jinoyat sodir etgan-etmaganligi ushbu huquqiy munosabatning boshqa ishtirokchilari tomonidan aniqlanadi. Aynan

shu holatda Konstitutsiya shaxsning manfaatlarini ko'zlagan holda o'zida 116-moddada keltirilgan normalarni mustahkamlaydi, ya'ni ayblanuvchi himoyalani sh huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi.

Ushbu holatda ayblanuvchiga himoyalani sh huquqining berilishi ishga jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari tomonidan subyektiv yondashuvlardan kelib chiqadigan oqibatlarining oldini oladi. Bundan nimani tushunish mumkin? Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning haqiqatda jinoyat sodir etganligini aniqlash uchun qo'llaniladigan usul va uslublar har doim ham qonuniy va shaffof bo'lmasligi mumkin. Bundan tashqari jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga nisbatan amaliyotda tergovchilar va prokurorlar tomonidan garchi Konstitutsiya va qonunlarda aybsizlik prezumpsiyasi belgilangan bo'lsa-da, jinoyatchi sifatida qarash hollari odatiy holdir. Bu esa ayblanuvchining huquq va manfaatlarining ular tomonidan buzilishi, insoniy qadr-qimmatining kamsitilishiga olib keladi. Xuddi ana shu – subyektiv yondashuvdir. Bu holatning oldini olish uchun jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxsni himoyalani sh va malakali yuridik yordam olish huquqi bilan ta'minlash zarurati yuzaga keladi.

Konstitutsiya aynan shu holatlarni hisobga olgan holda yuqoridagi normalarni o'zida mustahkamlaydi. Zotan, ushbu norma inson huquqlarini hatto u jinoyatchi sifatida uning ustidan hukm chiqarilishi jarayonida ham himoya qilinishini kafolatlaydi. Ayblanuvchi, sudlanuvchilarni jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlarda himoya qilish – asosan advokatlar, ayrim hollarda boshqa shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilgan malakali yuridik yordam aynan advokat tomonidan beriladi.

Advokatning ushbu holatda ishtirok etishidan asosiy maqsad bitta – o'z himoyasi ostidagi shaxsni oqlash, agar u bu ishning uddasidan chiqa olmaganda ham unga berilayotgan jinoiy jazoning yengillashtirilishiga erishish. Advokat o'z oldiga qo'ygan ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qonun bilan taqiqlanmagan har qanday usul va vositalardan foydalanadi: tergov harakatlarida, sud jarayonlarida ishtirok etadi, bevosita o'zi dalillar yig'adi va sudga taqdim qiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda advokatning sud va tergov jarayonida alohida-alohida ikkita vazifasi shakllanadi.

Birinchisi – tergov jarayonlarida, ikkinchisi – sud jarayonida. Advokatning tergov jarayonidagi asosiy vazifasi – o'z himoyasi ostidagi shaxsning huquqlari buzilmasligini ta'minlash va nazorat qilish bo'lsa, suddagi asosiy vazifasi himoyasi ostidagi shaxsning oqlanishi uchun imkon qadar harakat qilishdir. Advokatning jinoyat protsessidagi mazkur bosqichlarda ishtirokini tarozining ikki pallasiga o'xshatish mumkin: Tergov jarayonida tarozining bir pallasida advokat tursa, ikkinchi pallasida tergovchi turadi.

Sud jarayonida tarozining bir pallasida davlat va jamoat ayblovchisi tursa, ikkinchi pallada advokat turadi – qaysi taraf og‘irroq bo‘lsa, tarozi pallalari ham shunga qarab ko‘tariladi va tushadi.

Yuridik yordam bu umuman shaxsga o‘z huquqlarini amalga oshirishiga va himoya qilishiga yordam berish faoliyatidir. Yuridik yordam har qanday shaxs tomonidan ko‘rsatilishi mumkin. Xususan, jinoyat protsessida ham. Bu fikrimizga Jinoyat-protsessual kodeksining 49-moddasiga ko‘ra, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining va sudlanuvchining yaqin qarindoshlari va qonuniy vakillari ularning roziligi bilan himoyachi sifatida ishtirok etishlari mumkin. Bu holatda ular gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga o‘z huquqlarini himoya qilishda ko‘maklashadilar, boshqacha qilib aytganda, yuridik yordam ko‘rsatadilar. Lekin ularning ushbu yuridik yordamlari malakali yuridik yordam emas. Yuridik yordamni malakali deyish uchun u o‘z sohasining mutaxassisi tomonidan ko‘rsatilishi kerak, ya‘ni advokat tomonidan. Demak, biz advokatning jinoyat protsessining turli bosqichlarida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoya qilish bilan bog‘liq harakatlarinigina malakali yuridik yordam deya olar ekanmiz. Davlat hisobidan yuridik yordam - Qonunda belgilangan tartib-taomillar va shartlarga muvofiq to‘liq yoki qisman davlat hisobidan ko‘rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordam hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan Konstitutsiyada tergov va sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichlarida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi, degan normani keltirdik. Kafolat deganda nima tushuniladi? Bu norma shu bilan izohlanadiki, agar tergov yoki sud jarayonida ayblanuvchi yoki sudlanuvchi malakali yuridik yordam olish huquqidan foydalana olmasa, bu holat tergovchining qarori yoki sud hukmining qonuniy, asosli va adolatli ekanligiga shubha tug‘diradi va kelgusida ularning bekor bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, har bir fuqaroning huquqlari ular qanday holatda, qanday huquqiy maqomda bo‘lishlaridan qat’i nazar himoya qilinishi shart. Advokatlar tomonidan fuqarolarga ko‘rsatiladigan malakali yuridik yordam esa bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlari ijtimoiy ahamiyati nuqtayi nazaridan Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonuni
5. Internet ma’lumotlari